	Talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalari ..... 1846 <i>Xurramova Sanobar Mahmatmurod qizi</i>
	O'smirlik davrida axloqiy o'zini o'zi anglashni ijtimoiy psixologik xususiyatlari ..... 1851 <i>Galdiyeva Mehribon Durdiyevna</i>
	Bolalar bog'langan nutqni rivojlantirishda badiiy adabiyotlarning muhim o'rni ..... 1855 <i>Abidova N. Z., Karimova Z. A.</i>
	The Emergence of Speech Competence and its Role in 21St Century Competencies ..... 1859 <i>Rajabova Munishxon Rajab qizi</i>
	Innovatsion ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari (ona tili fani misolida)..... 1863 <i>Norboyeva Farangiz Alisher qizi</i>
	Global raqamli qaramlik (telefon, internet, ijtimoiy tarmoq)ning talabalarning ruhiy holatiga ta'siri ..... 1868 <i>Babayeva Nazira Asatullayevna</i>
	O'smirlar o'rtasida o'zaro hamkorlik shakllanishida shaxslararo munosabatlarning ahamiyati ..... 1872 <i>Majidov Jasur Baxtiyarovich</i>
	Yosh futbolchilarda stress va asabiylikni boshqarish..... 1877 <i>O.T. Baxromov</i>
	Структура и содержание когнитивных компетенций в профессиональной подготовке педагога..... 1880 <i>Каримова Фарида Наильевна</i>
	Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishda milliy qadriyatlardan foydalanish..... 1884 <i>Muqimov Ma'ruf Olimovich</i>
	Biologiya darslarida innovatsion interfaol metodlar: STEM, CLIL, Flipped Classroom va PBL yondashuvlarini joriy etish mexanizmlari ..... 1887 <i>Kozimov Akbarjon A'zamjon o'g'li</i>
	Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish ..... 1892 <i>Ibrohimova Nilufar Qobil qizi</i>
	Творческое наследие Тагай Мурада: его рассказы в оригинале и в переводе ..... 1897 <i>Меликулова Нилуфар Хамдуллаевна</i>
	Gender Equality: an Important Prospect for the Development of a New Uzbekistan..... 1902 <i>Khamidova Sitorakhan Mukhammadjonovna</i>
	Gandbolchilarning jismoniy sifatlarini harakatli o'yinlar orqali rivojlantirish..... 1906 <i>Lutpullayev Bunyod Ismatilayevich</i>
	Abu Mansur al-Moturidiyning bilimning "Muvofiqlik nazariyasi" ..... 1909 <i>Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi</i>
	Professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarning rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning afzalliklari..... 1914 <i>X. N. Agaliyeva</i>
	Maktabgacha ta'limda bolalarning hissiy-ma'naviy rivojlanishida didaktik o'yinlarning ahamiyati ..... 1920 <i>Urinbayeva Barchinoy Zafarjanovna</i>
	Yoshlarni milliy musiqa san'ati va an'anaviy xonandalikka bo'lgan munosabatini tarbiyalash ..... 1924 <i>Qurbonova Shoxisanam Axmadjonovna</i>
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tabiiy fanlar mavzularini o'rganishdagi klaster yondashuvlari. 1930 <i>Umarova Nafisa Ahmatillovna</i>
	11–15 yoshli suzuvchilarning mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish xususiyatlari ..... 1934 <i>Hasanov Anvar Toxirovich, Asqarova Zaynura</i>
	Yosh voleybolchilarning jismoniy rivojlanishini o'rganish ..... 1937 <i>Sultonov Baxtiyor Abdumurodovich, Hasanov Anvar Toxirovich</i>



Школьные трудности в обучении и педагогическое диагностирование .....	1940
<i>Урумбаева Айгуль Нагметовна</i>	
Erkin kurashchilarda maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishda funksional kuch mashqlarining samaradorligi.....	1943
<i>Meliqo'ziyev Azizjon Adxamjon o'g'li</i>	
Употребление падежных окончаний на уроках русского языка .....	1947
<i>Адилова Солияхон</i>	
STEAM va raqamli ta'lim texnologiyalari asosida alfa avlod o'quvchilarida kreativ tafakkurni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	1951
<i>Boltayeva Go'zal Komilovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida olib boriladigan mashg'ulotlarda zamonaviy ta'lim texnologiyalariga qo'yiladigan didaktik talablar .....	1954
<i>Mansurova Lobar Luqmon qizi</i>	
Translation Techniques as an Integral Part of Foreign Language Teaching and Learning: Benefits and Potential Issues .....	1958
<i>Yusupova Nargiza Abdulxafizovna</i>	
Использование интерактивных методов обучения русскому языку в медицинском вузе.....	1963
<i>Бекмуратова Умида Аманбаевна</i>	
Nogironligi bo'lgan bolalarda adaptiv jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining sog'liqni saqlashdagi o'rni.....	1967
<i>Namozova Nargiza Husniddin qizi</i>	
The Importance of the Theoretical Basis in Educating Preschool Children in the Spirit of National Education Within the Family.....	1971
<i>Rakhmonova Diyora Utkir's daughter</i>	
Kurash mashg'ulotlarida sportchilarning funksional tayyorgarligini oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari.....	1976
<i>Nurullayev Abduxoliq Qaxxorovich</i>	
Voleybol mashg'ulotlarida funksional tayyorgarlikni oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari ...	1980
<i>Davulov Ozodbek Qalandarovich</i>	
18–21 yoshdagi talaba futbolchilarni kompleks tayyorlashning nazariy va uslubiy jihatlari.....	1984
<i>Djemilov Temur Rasimovich</i>	
Oilaviy nizolarning bolalar psixikasiga ta'siri.....	1989
<i>Tulyaganova Dilnoza Ravshanbekovna</i>	
Boshlang'ich maktab yoshidagi (6–8 yosh) chap qo'li dominant bo'lgan bolalarning psixologik rivojlanishi va xususiyatlari .....	1993
<i>Usmanova Sevara Akmalovna</i>	
Matematika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar orqali darsni qiziqarli va samarali qilish usullari ...	1996
<i>Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich</i>	
Entropiya o'lchovlarining nazariy asoslari: Shannon, Reyni va Tsallis entropiyasi taqqoslamasi.....	2001
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Abdurashidov Saydullo Xayrullo o'g'li</i>	
Sun'iy intellekt vositalari asosida kiberijtimoiylashuv samaradorligini oshirishning pedagogik sharoitlari va monitoring mexanizmlari.....	2007
<i>Istamova Dilnoza Norboyevna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida kompetensiyaviy yondashuvga tayanib ta'lim mazmunini boshqarish .....	2012
<i>Turaxujayeva Madina Norpulatovna</i>	
Para armrestlingchi talabalarni musobaqa oldi texnik tayyorgarligini takomillashtirishda kuch sifatining o'rni.....	2015
<i>Karimov Faxriddin Xurramovich</i>	
Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri .....	2019
<i>Djabbarov Axror Islomovich</i>	
Tinchlik madaniyati konsepsiyasining evolyusiyasi: klassik va zamonaviy falsafa.....	2023
<i>Abdumalikov Ilimjon Abduxamjonovich</i>	
Talabalarning muammoga asoslangan topshiriqlar orqali kognitiv mustaqilligini rivojlantirish: mohiyat va mazmun .....	2028
<i>Abduvaliyev Nurillo Abdujalilovich</i>	
Oliy ta'lim muassasasi pedagoglari innovatsion faoliyatining ijtimoiy psixologik xususiyatlari .....	2032
<i>Almardanova Salomat Bobonazarovna</i>	

Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish zarurati .....	2035
<i>Ashirov Abdurashid Ravshanovich</i>	
Pedagogik ta'lim klasteri tizimi asosida maktab laboratoriya innovatsion loyihasi amalg oshirishning o'ziga xosligi .....	2040
<i>Azimova Odinaxon Abduqodir qizi</i>	
Talabalarda algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning sun'iy intellekt va Big Data Analytics asosida o'quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatuvchi va boshqaruvchi konseptual modelni takomillashtirish.....	2043
<i>Kayumova Nazokat Rashitovna</i>	
Uzluksiz ta'lim tizimida texnologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishning metodik asoslari .....	2049
<i>Kurbanov Baxrom</i>	
Ingliz tilida o'qitish vositasi sifatida monologlardan foydalanishning muvaffaqiyatli strategiyalari .....	2053
<i>Madaminova Nilufar Madrasulovna</i>	
Raqamli texnologiyalar davrida o'quvchilarning psixologik xavfsizligini ta'minlash muammolari .....	2056
<i>Mahmudov Dilmurod Rahmatjonovich</i>	
Gamifikatsiya va STEAM texnologiyalarini joriy etish orqali boshlang'ich ta'limda inklyuziya va teng imkoniyatlarni ta'minlash .....	2059
<i>Mamadjanova Diloromxon Baxtiyor qizi</i>	
Talabalarining tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....	2064
<i>Mamasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich</i>	
Maktab yoshidagi o'quvchilarda suzish mashg'ulotlari orqali jismoniy rivojlanish va funktional tayyorgarlik ko'rsatkichlarini oshirish metodikasi.....	2067
<i>Mengliqulov Xayrullo Aliqulovich</i>	
O'quv jarayonida "Data Science" elementlarini integratsiyalashning didaktik imkoniyatlari .....	2072
<i>Mo'minova Dilnavoz Komilovna</i>	
Muloqot kompetensiyasining pedagogik-psixologik mazmuni va rivojlanish omillari.....	2077
<i>Narbayeva Malohat Xudayberdiyevna</i>	
O'g'il va qiz bolalarda gender tasavvurlarning shakllanishida ota-onaning liderlik maqomining roli.....	2080
<i>Ogina Otajonova</i>	
Yarimo'tkazgichlar fizikasi fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy asoslari .....	2084
<i>Oromiddinov Sardorbek Botirovich</i>	
Yangi O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishda media vositalardan foydalanish metodlari .....	2089
<i>Qobilov Vohidjon Asliddin o'g'li</i>	
Inklyuziv ta'limda pedagoglarni tayyorlashning zamonaviy tendensiyalari va innovatsion yondashuvlar ...	2092
<i>Qodirova Feruza Usmanovna</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yinli texnologiyalardan unumli foydalanishning roli.....	2095
<i>Sobirova Bonu Matkarimovna</i>	
Kichik yoshli bolalarning olamni idrok etishlarida oila tarbiyasining ahamiyati .....	2099
<i>Sobirova Fotimaxon Baxodir qizi, G'aniyeva Shodiya Azizovna</i>	
Talabalarining tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....	2102
<i>Mamasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning didaktik tizimi .....	2105
<i>Ulug'berdiyeva Dilbar Qarshibekovna</i>	
Kurashchi qizlarning texnik harakatlarining kinematik va kinetik modellashtirish .....	2109
<i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi</i>	
Lingvokulturologiya va kommunikativ yondashuv integratsiyasi asosida talabalarda ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish.....	2114
<i>Y. T. Umarova</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatda kasbiy barqarorligini ta'minlovchi psixologik omillar .....	2118
<i>Yakubova Manzura Abduraxmonovna</i>	
Integratsiyalashgan darslar orqali talabalarining kreativ salohiyatini rivojlantirish .....	2121
<i>Yaxyayeva Umida Sharifovna</i>	
Tibbiyot oliy ta'limida "O'zbekiston tarixi" fanining amaliy komponentini kuchaytirish: klinik-ijtimoiy kontekst orqali o'qitish modeli .....	2125
<i>Yulchiyeva Gulnozaxon Shuxratbek qizi</i>	
Radiatsion fonning inson hayot faoliyatiga ta'siri mavzusini o'rganishning pedagogik ahamiyati .....	2130
<i>Sodiqov Murod Naimovich</i>	



Talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda zamonaviy jismoniy tarbiya metodlarining samaradorligi .....	2134
<b>Tashpulatov Farxad Alisherovich</b>	
“Arba’in” asarida qit’alarning vazniy xususiyatlari.....	2140
<b>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</b>	
Guruhiy loyihalar orqali bolalarda hamkorlik va muloqot ko’nikmalarini tarbiyalash.....	2145
<b>Negmatova Sanobar Qarshiboyevna</b>	
Sport takomillashuv gurugidagi futbolchilarni o’yinga yo’naltirilgan mashg’ulotlar orqali musobaqaga tayyorgarlikni takomillashtirish .....	2149
<b>Mamatramov Anvar Chorshanbiyevich</b>	
Oliy ta’lim raqobatbardoshligining ta’lim sifatini oshirishdagi roli .....	2155
<b>Nishonov Dilshod Shamsidinovich</b>	
Sharq donoligi va zamonaviy ta’lim uyg’unligi .....	2162
<b>Djurakulova Adolat Xolmuratovna</b>	
The Role of Artificial Intelligence in Teaching English as a Foreign Language .....	2165
<b>Babayeva Komila Rishatovna</b>	
Zaif eshituvchi bolalarga tasviriy san’atni o’rgatishning metodik asoslari (miniatyura misolida).....	2169
<b>Buharbayev Muxtar Yusupovich</b>	
Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining axloqiy va estetik madaniyatini takomillashtirish: maxsus yondashuvlar .....	2172
<b>Do’schanova Nafosat Norimonovna</b>	
Boshlang’ich sinf o’quvchilarida tanqidiy fikirlashni rivojlantirish texnologiyalari .....	2176
<b>Fayzullayeva Feruza Raxmatovna</b>	
Bo’lajak o’qituvchilarda kommunikativ madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari .....	2179
<b>Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi</b>	
Dialekt va adabiy til: o’zaro munosabat.....	2183
<b>Jumanazarova Guljahon</b>	
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalariga kommunikativ kompetensiyalarni o’rgatishda interaktiv ta’lim texnologiyalar.....	2187
<b>Kimsanboyeva Ruksoraxon Ziyodbek qizi</b>	
Pedagogik nizolarni hal etishda bo’lajak o’qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari .....	2190
<b>Norjon Jamilova Abduxoliq qizi</b>	
Abu Nasr Farobiy asarlari asosida talabalarni boshqaruv madaniyatini rivojlantirish.....	2194
<b>Shamsiyeva M. R.</b>	
O’smirlarda affiliatsiya motivini shakllantirishning pedagogik-psixologik determinantlari .....	2196
<b>Tojiboyeva Gulxumor Raxmanjanovna, Saidova Maftuna Xakim qizi</b>	
Преподаватель - русист в современной национальной школе: личный опыт и методические находки .....	2200
<b>Хамидова Гулноза Турсунбаевна (Турсунбой кизи)</b>	



## “ARBA'IN” ASARIDA QIT'ALARNING VAZNIY XUSUSIYATLARI

**Eshniyazova Maysara Beknazarovna**  
ISFT instituti Samarqand filiali, katta o'qituvchi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Arba'in” asaridagi qit'alarning vazniy xususiyatlari, ularning turkiy til fonetik va prosodik imkoniyatlari bilan uyg'unlashuvi hamda xafif bahrining shoir ijodidagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda vazn, bahr va taqte' masalalari ritmik variatsiyalar doirasida yoritilib, qit'alarning badiiy-estetik ta'siri ilmiy asosda izohlanadi.

**Kalit so'zlar:** vazn, bahr, xafif, taqte', variatsiya, tezis, antitezis, sintez.

**Abstract:** This article analyzes the metrical characteristics of the quatrains in Alisher Navoi's “Arba'in”, their harmonization with the phonetic and prosodic features of the Turkic language, and the role of the xafif metre in the poet's oeuvre. Issues of metre, bahr, and scansion are examined within the framework of rhythmic variations, highlighting their artistic and aesthetic functions.

**Key words:** vazn, bahr, xafif, taqte', variation, thesis, antithesis, synthesis.

**Аннотация:** В статье анализируются весовые характеристики кыт'а произведения Алишера Навои “Арбаин”, их гармонизация с фонетико-просодическими особенностями тюркского языка, а также место бахра хафиф в поэтическом наследии поэта. Особое внимание уделяется вопросам метра, бахра и такте в контексте ритмических вариаций.

**Ключевые слова:** вазн, бахр, хафиф, такте, вариация, тезис, антитезис, синтез.

### KIRISH

Alisher Navoiy “Arba'in” asaridagi qit'alarda hadislar mazmunini kengaytirib, ularni hayotiy dalillar bilan boyitgan, shuningdek, o'z tilining badiiy imkoniyatlari orqali mazmunan ziynatlagan. Shu bilan birga, mazkur asar she'riyat talablariga muvofiq, aruz tizimining o'ziga xos vaznida yaratilgani bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Mavjud manbalarda “Arba'in” asarining vazni xaffi musaddasi maxbuni mahzuf yoki maxbuni maqtu' sifatida qayd etiladi<sup>1</sup>. Asardagi she'riy namunalarning vazniy xususiyatlari tahlil qilinganda, ularning yuqorida ko'rsatilgan xafif bahrida yozilgani o'z tasdig'ini topadi. Shu bilan birga, ayrim qo'shimcha mulohazalarni bayon etish zarurati ham yuzaga keladi. Jumladan, Alisher Navoiy “Arba'in” asarining kirish va xotima qismlarida keltirilgan baytlarning 22 tasi xafif bahrining ketma-ket bir xil taqte'ida bitilgan bo'lib, ularning 17 tasi maxbuni maqtu', 5 tasi esa maxbuni mahzuf vaznida yozilgan. Qolgan 6 ta baytda esa juft misralar ikki xil taqte'da kelib, o'ziga xos ritmik tuzilmani namoyon etadi. Xususan, uch baytda birinchi misraning oxirgi rukni maxbuni maqtu', ikkinchi misraning oxirgi rukni esa maxbuni mahzuf shaklida bo'lsa, yana uch baytda buning aksi kuzatiladi<sup>2</sup>.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Alisher Navoiy ijodini, xususan, aruz tizimidagi she'riy merosini o'rganish o'zbek adabiyotshunosligida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. “Arba'in” asari vazniy jihatdan nisbatan kam tadqiq qilingan bo'lib, mavjud ilmiy adabiyotlarda asosan uning mazmuniy, axloqiy va manbaviy xususiyatlariga e'tibor qaratilgan. Jumladan, N. Mallayev, O. Sharafiddinov, A. Qayumov singari olimlar Navoiy ijodining umumiy poetik xususi-

1 Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2019. – B.231.

2 A.Hojjahmedov biz yuqorida ko'rib o'tgan bu ikki vaznning ko'proq qit'alarni yozishda qo'llangani haqida aytib o'tadi (Bu haqda qarang: Hojjahmedov A. Aruz nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. 61-bet.) Navoiy ijodida esa bu vaznda masnaviyar ham bitilganiga guvoh bo'lmoqdamiz.



yatlarini yoritgan bo'lsalar, Sh. Sirojiddinov va D. Yusupova tadqiqotlarida aruz va bahr masalalari chuqurroq tahlil qilingan.

A. Hojiahmedovning "Aruz nazariyasi asoslari" asari aruz vaznlarini tizimli o'rganishda muhim metodik manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotlarda xafif bahrining nazariy asoslari yoritilgan bo'lsa-da, uning "Arba'in" asaridagi konkret ritmik variatsiyalari maxsus tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada yoritilmagan. Shu bois mazkur maqola mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirish bilan birga, "Arba'in" qit'alaridagi vazniy rang-baranglikni aniqlashga yo'naltirilgan.

Adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, Navoiy aruzni turkiy til imkoniyatlariga moslashtirishda ijodiy yondashuvni qo'llagan. Bu holat ayniqsa xafif bahrining turli shakllarida yaqqol namoyon bo'ladi. Demak, mavzuga oid ilmiy manbalar mazkur tadqiqotning dolzarbligini asoslaydi va uni mustaqil ilmiy izlanish sifatida qarashga imkon beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda Alisher Navoiyning "Arba'in" asaridagi qit'alar vazniy xususiyatlarini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, aruz nazariyasiga asoslangan taqte' (vazniy bo'g'inlarga ajratish) metodi qo'llanilib, har bir qit'aning misralari ruknlar va zihoflar kesimida tahlil qilindi. Ushbu usul she'riy matndagi chouk va qisqa hijolarning nisbatini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Shuningdek, qiyosiy-tahliliy metod yordamida xafif bahrining maxbuni maqtu', maxbuni mahzuf va boshqa shakllari o'zaro solishtirildi. Bu esa ritmik variatsiyalarning funksional ahamiyatini ochib berishga imkon yaratdi. Tavsifiy metod orqali aniqlangan vazniy holatlar tizimlashtirilib, jadval ko'rinishida umumlashtirildi.

Tadqiqot jarayonida statistik yondashuv ham qo'llanildi: muayyan vazn shakllarida yozilgan misralar soni hisoblab chiqildi va ularning nisbiy ustunligi aniqlandi. Bundan tashqari, lingvopoetik tahlil orqali vazn va mazmun o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ko'rsatib berildi.

Mazkur metodlar majmui "Arba'in" asarining vazniy tuzilishini kompleks tarzda yoritish, xafif bahrining turli ritmik imkoniyatlarini aniqlash hamda Navoiy ijodidagi aruz tajribasini chuqurroq anglash imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, "Arba'in" asarida xafif bahrining o'n xil ritmik variatsiyasi faol qo'llangan bo'lib, ularning ichida xafifi musaddasi maxbuni maqtu' vazni yetakchi o'rinni egallaydi. Ushbu vazn shaklida yozilgan misralar umumiy hajmning katta qismini tashkil etadi, bu esa Navoiy tomonidan mazkur ritmning badiiy imkoniyatlari yuqori baholanganini ko'rsatadi.

Tahlil jarayonida ayrim qit'alarda bir vazn doirasida ritmik o'zgarishlar amalga oshirilgani aniqlandi. Masalan, bir qit'aning ayrim misralari maxbuni maqtu', boshqalari esa maxbuni mahzuf shaklida keladi. Bunday holat ilmiy adabiyotlarda ritmik variatsiya sifatida talqin qilinadi va u she'riy ohangni jonlantirishga xizmat qiladi. Natijalarga ko'ra, bu usul ayniqsa xulosaviy misralarda qo'llanilib, fikrning ta'sirchanligini oshiradi.

Shuningdek, tahlil Navoiy aruz qoidalarini turkiy til fonetik xususiyatlariga moslashtirganini ko'rsatdi. Ayrim bo'g'inlarning cho'ziq yoki qisqa hijo sifatida talqin qilinishi shoirning ijodiy erkinligini namoyon etadi. Jadvaliy tahlillar xafif bahrining mazkur asarda tizimli va maqsadli qo'llanganini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, olingan natijalar "Arba'in" asari vazniy jihatdan murakkab va rang-barang ekanini ko'rsatib, uning poetik qiymatini yanada oshiradi.

Mazkur holat ilmiy adabiyotlarda ritmik variatsiya deb atalib, xafif bahrining muhim va o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Shunday ritmik variatsiyalarning mavjudligi "Arba'in" asaridagi qit'alarda ham yaqqol namoyon bo'ladi (1-jadvalga qarang).

1-jadval: "Arba'in" asaridagi qit'alarining vazniy tahlili

№	Xususiyati	Bahri (xafifi musaddasi +... ko'rsatilgan vazn)	Taqte'si	Ko'rsatilgan vaznda yozilgan qit'alar raqami
1	Har to'rtala misrasi bir xil tartibda	maxbuni maqtu'	-V--/V-V-/- -V--/V-V-/- -V--/V-V-/- -V--/V-V-/-	1, 3, 8, 9, 10, 13, 17, 21, 24, 26, 27, 34
		maxbuni mahzuf	-V--/V-V-//V-V- -V--/V-V-//V-V- -V--/V-V-//V-V- -V--/V-V-//V-V-	5



2	Bitta misrasining oxirgi rukni zihofi qolgan uch misradan farqli	1-misrasi maxbuni maqtu', qolgan misralari maxbuni mahzuf	-V---/V-V-/-- -V---/V-V-/VV- -V---/V-V-/VV- -V---/V-V-/VV-	35, 36
		2-misrasi maxbuni maqtu', qolgan misralari maxbuni mahzuf	-V---/V-V-/VV- -V---/V-V-/-- -V---/V-V-/VV- -V---/V-V-/VV-	40
		3-misrasi maxbuni maqtu', qolgan misralari maxbuni mahzuf	-V---/V-V-/VV- -V---/V-V-/VV- -V---/V-V-/-- -V---/V-V-/VV-	25
		1-misrasi maxbuni mahzuf, qolgan misralari maxbuni maqtu'	-V---/V-V-/VV- -V---/V-V-/-- -V---/V-V-/-- -V---/V-V-/--	2, 14, 15, 22, 38
		3-misrasi maxbuni mahzuf, qolgan misralari maxbuni maqtu'	-V---/V-V-/-- -V---/V-V-/-- -V---/V-V-/VV- -V---/V-V-/--	6, 18, 19, 23, 31
		3-misrasi maxbuni maqtu'i musabbag', qolgan misralari maxbuni maqtu'	-V---/V-V-/-- -V---/V-V-/-- -V---/V-V-/-- -V---/V-V-/--	12
3	Oxirgi ruknlar zihofi ikkita misrada bir xil	1-, 3- misralari maxbuni maqtu', 2-, 4-misralari maxbuni mahzuf	-V---/V-V-/-- -V---/V-V-/VV- -V---/V-V-/-- -V---/V-V-/VV-	7, 39
		1-, 3- misralari maxbuni mahzuf, 2-, 4-misralari maxbuni maqtu'	-V---/V-V-/VV- -V---/V-V-/-- -V---/V-V-/VV- -V---/V-V-/--	16, 32, 33, 37
4	Oxirgi rukni uch xil zihofda	1-misrasi maxbuni majhufi musabbag', 2-, 4- misralari maxbuni maqtu'i musabbag', 3-misrasi maxbuni maqtu'	-V---/V-V-/~ -V---/V-V-/~ -V---/V-V-/-- -V---/V-V-/~	20
5	Ikkinchi va uchinchi ruknlari farqli	1-misrasi maxbuni muraffali mahzuf, 2-4-misralari maxbuni maqtu', 3-misrasi maxbuni mahzuf	-V---/V-V---/VV- -V---/V-V-/-- -V---/V-V-/VV- -V---/V-V-/--	28
		1-misrasi marfu'i muraffali majhuf, 2-misrasi marfu'i muraffali maqtu', 3-4-misralari maxbuni maqtu'	-V---/-V---/- -V---/-V---/-- -V---/V-V-/-- -V---/V-V-/--	11
		1-misrasi maxbuni maqtu', 2-, 4-misralari matviyi maqtu', 3-misrasi maxbuni mahzuf	-V---/V-V-/-- -V---/-VV-/-- -V---/V-V-/VV- -V---/-VV-/--	29
		1-misrasi matviyi marbu', 2-, 4-misralari maxbuni maqtu', 3-misra matviyi maqtu'	-V---/-VV-/V- -V---/V-V-/-- -V---/-VV-/-- -V---/V-V-/--	30
		1-misrasi maxbuni mahzuf, 2-3-misrasi maxbuni maqtu', 4-misrasi matviyi maxbuni mahzuf	-V---/V-V-/VV-* -V---/V-V-/-- -V---/V-V-/-- -V---/-VV-/VV-	4

\* Qit'aning birinchi misrasidagi "durringni" so'zini vazn talabiga ko'ra, turkiy talaffuzga moslashtirib "duringni" deb o'qish va yozish to'g'ri bo'ladi.



Aniqlangan ma'lumotlar asosida shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiy "Arba'in" asarini yaratishda xaffif bahrining quyidagi o'n xil ritmik variatsiyasidan samarali foydalangan (2-jadvalga qarang).

2-jadval: Xaffif bahrining "Arba'in" asarida qo'llangan ritmik variatsiyalari

№	Ritmik variatsiyalar	Taqte'si	Afoili	Shu vaznda bitilgan misralar soni		
				Muqaddima va xotima	Qit'a	Jami
1.	xaffifi musaddasi maxbuni maqtu'	- V - - / V - V - / - -	foilotun mafoilun fa'lun	40	108	148
2.	xaffifi musaddasi maxbuni mahzuf	- V - - / V - V - / V V -	foilotun mafoilun failun	16	40	56
3.	xaffifi musaddasi maxbuni maqtu'i musabbag'	- V - - / V - V - / - ~	foilotun mafoilun fa'lon	-	3	3
4.	xaffifi musaddasi maxbuni majhufi musabbag'	- V - - / V - V - / ~	foilotun mafoilun fo'	-	1	1
5.	xaffifi musaddasi marfu'i muraffali majhuf	- V - - / - V - - / -	foilotun muftaiylun fa'	-	1	1
6.	xaffifi musaddasi marfu'i muraffali maqtu'	- V - - / - V - - / - -	foilotun muftaiylun fa'lun	-	1	1
7.	xaffifi musaddasi maxbuni muraffali mahzuf	- V - - / V - V - - / V V -	foilotun mafoilotun failun	-	1	1
8.	xaffifi musaddasi matviyi maqtu'	- V - - / - V V - / - -	foilotun muftailun fa'lun		3	3
9.	xaffifi musaddasi matviyi marbu'	- V - - / - V V - / V -	foilotun muftailun faal		1	1
10.	xaffifi musaddasi matviyi maxbuni mahzuf	- V - - / - V V - / V V -	foilotun muftailun failun		1	1
<b>Jami:</b>		<b>10</b>		<b>56</b>	<b>160</b>	<b>216</b>

Ko'rinadiki, xaffifi musaddasi maxbuni maqtu' bahri "Arba'in" asarida yetakchi o'rin egallaydi. Mazkur vaznda qisqa hijolarga nisbatan cho'ziq hijolarning ustunligi ritmgaga donishmandlik, mulohazakorlik, bosiqlik, jiddiylik, mas'uliyat va salmoqdorlik singari sifatlarni baxsh etadi. Xaffifi musaddasi maxbuni mahzuf vaznda esa qisqa hijolarning cho'ziq hijolarga deyarli teng kelishi ohangga qat'iylik, harakatga tezkorlik hamda ritmgaga yengillik bag'ishlaydi. Shu bois qit'alarning yarmidan ortig'ida muallif misralar vaznini vaziyatga mos ravishda o'zgartirib boradi. Bu usul qit'aning tezis, antitezis va sintez qismlarida ham izchil qo'llanadi.

Ohangdagi bunday kichik o'zgarishlar qit'aning umumiy vazniga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi, ritmni buzmaydi; aksincha, badiiy g'oyani kuchaytirib, kitobxon e'tiborini ifodalanayotgan fikrning muhim nuqtalariga qaratishga xizmat qiladi. Jumladan, "Xayr un-nāsi man yanfa'u-n-nās" ("Insonlarning yaxshisi – insonlarga foydasi tegadiganidir") hadisi sharhiga bag'ishlangan qit'a xaffif bahrining ikki xil taqte'si asosida yaratilgan:

Xalq aro yaxshiroq, deding, kimdur?  
 - V - - / V - V - / - -  
 Eshitib, ayla shubha raf' andin,  
 - V - - / V - V - / - -  
 Yaxshiroq bil ani ulus arokim,  
 - V - - / V - V - / V V -  
 Yetsa ko'prak ulusqa naf' andin<sup>4</sup>.  
 - V - - / V - V - / - -

Mazkur qit'aning 1-, 2- va 4-misralari xaffifi musaddasi maxbuni maqtu', 3-misrasi esa xaffifi musaddasi maxbuni mahzuf vaznda bitilgan. Ta'kidlash joizki, xulosaviy fikr bayon etilishidan avval ohangning o'zgartirilishi badiiy-ma'noiy ta'sirni kuchaytiradi: xususan, 3-misraning uchinchi ruknida qo'llangan zihof tarkibida qisqa hijolarning ko'pligi fikr xulosasining keskin va ta'sirchan ifodalanishiga ishora bo'lib xizmat qiladi.

Alisher Navoiyning ijodiy merosiga murojaat qilinganda, she'riyatda xaffif bahriddan foydalanish dastlabki yillarda kuzatilmagani ayon bo'ladi. "Ilk devon" hamda "Oqquyunli muxlislar devoni" tarkibidagi she'rlar orasida

4 Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 10-jild. Arba'in. – Toshkent: G'ulom nomidagi NMIU, 2013. – B.586.

bu bahrda yozilgan namunalari uchramaydi. “Badoye’ ul-bidoya” devonida 12 ta, “Navodir un-nihoya”da esa 2 ta g’azal xaffi bahrida yaratilgani qayd etiladi<sup>5</sup>. Agar 1484-yilda yozilgan “Sab’ai sayyor” dostoni mazkur bahrida bitilib, unda bahrning 8 ta ritmik variatsiyasi qo’llangani e’tiborga olinsa, undan avval yaratilgan “Arba’in” asari Navoiy ijodida xaffi bahrining takomillashuvi hamda uning turkiy til imkoniyatlariga to’la moslashuvi yo’lidagi muhim ijodiy bosqich bo’lganini ta’kidlash o’rinlidir.

Darhaqiqat, asarda hijolarning cho’ziq-qisqaligini belgilash jarayonida shoir turkiy tilning fonetik xususiyatlarini ham hisobga olgan. Ma’lumki, o’zbek tilida cho’ziq unlilar bo’lmagani kabi, qisqa unlilar ham mavjud emas; arab tilida esa “o”, “u”, “o” tovushlarini ifodalovchi birliklar cho’ziqlik, “a”, “i”, “e” tovushlarini ifodalovchi birliklar esa qisqalik sifatiga ega. Navoiy turkiy til talaffuziga monand holda “o”, “u” yoki, aksincha, “a”, “i” unlilari bilan tugagan bo’g’inlarni vaziyatga qarab bir misraning o’zida goh cho’ziq, goh qisqa hijo shaklida qo’llaydi (masalan, 3-qit’a: “Ul musulmondururki, solimdur, / Tili-yu ilgidin musulmonlar”).

Shuningdek, uch undoshning ketma-ket kelishi aruz qoidalariga ko’ra o’ta cho’ziq hijo uchun asos bo’ladi. Biroq Navoiy turkiy tilning ichki imkoniyatlarini, xususan, tovush tushishi hodisasini hisobga olib, qator undoshli bo’g’inlarni ayrim hollarda bir cho’ziq hijo ko’rinishida ham qo’llaydi. Masalan, 25-qit’adagi “Do’stlashinglar hadiyalar berishib” misrasida “do’stlashinglar” so’zini “do’slashinglar” tarzida hijoga ajratish to’g’ri bo’lsa, “Yaxshiroq do’stliq hadiyasidin” misrasidagi “do’stliq” so’zida birinchi bo’g’in arab tili qoidalariga muvofiq o’ta cho’ziq hijo sifatida baholanadi.

Xaffi bahridan Alisher Navoiy keyingi yillardagi ijodida ham samarali foydalangan. Jumladan, “Xazoyin ul-maoniy” majmuasida xaffi bahrining 5 ta vazni 62 ta she’rda qo’llangani qayd etiladi<sup>6</sup>; ularning orasida qit’a janriga mansub asarlar ham talaygina. Demak, aytish mumkinki, Alisher Navoiy xaffi bahrining qit’alar vazni sifatida xoslanishi va shakllanishiga muhim hissa qo’shgan hamda bu vaznning turkiy adabiyotdagi o’rnini “Arba’in” asari orqali mustahkamlab bergan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga tayangan holda xulosa qilish mumkinki, Alisher Navoiy “Arba’in” asarida xaffi bahrining boy ritmik imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalangan. Asarda qo’llangan o’n xil ritmik variatsiya shoirning aruz tizimini chuqur bilganini hamda uni turkiy she’riyat ehtiyojlariga moslashtira olganini yaqqol namoyon etadi. Ayniqsa, maxbuni maqtu’ va maxbuni mahzuf vaznlarining almashib kelishi badiiy fikrni kuchaytiruvchi muhim vosita sifatida xizmat qilgan.

“Arba’in” asari Navoiy ijodida xaffi bahrining shakllanishi va takomillashuvi yo’lidagi muhim bosqich bo’lib, keyingi yillardagi asarlar uchun poetik tajriba vazifasini bajargan. Shoir vazn va mazmun o’rtasida nozik muvozanatni saqlab, aruzni milliy til imkoniyatlari bilan uyg’unlashtirishga erishgan.

Mazkur tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflarni bildirish mumkin: birinchidan, Navoiy asarlarida boshqa bahrlarning ritmik variatsiyalarini ham kompleks tahlil qilish maqsadga muvofiq; ikkinchidan, aruz vaznlarini o’rganishda lingvistik va raqamli tahlil usullarini kengroq joriy etish lozim. Ushbu yo’nalishdagi izlanishlar mumtoz adabiyotimiz poetikasini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Alisher Navoiy. To’la asarlar to’plami. 10 jildlik. 10-jild: Arba’in. – Toshkent: G’.G’ulom nomidagi NMIU, 2013.
2. Hojiahmedov A. Aruz nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
3. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2019.
4. Alisher Navoiy. To’la asarlar to’plami. 10 jildlik. 10-jild: Nasoyim ul-muhabbat. – Toshkent: G’.G’ulom nomidagi NMIU, 2013. – B. 87–504, 653–663.
5. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2019. – B. 227–270.
6. Mallayev N. O’zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. – Toshkent: O’qituvchi, 1965. – 664 b.
7. Ochilov E. Alisher Navoiy. – Toshkent: O’zbekiston, 2013. – 195 b.
8. Sharafiddinov O. Alisher Navoiy (hayoti va ijodi). – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1971. – 192 b.
9. Qayumov A. Alisher Navoiy. – Toshkent: O’zbekiston, 2011. – 40 b.
10. Yusupova D. O’zbek mumtoz adabiyoti tarixi (Alisher Navoiy davri). – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 198 b.

<sup>5</sup> Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2019. – B.376-377.

<sup>6</sup> Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2019. – B.379.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.